

Date: 17th November-2024

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING VOYAGA YETMAGANLARGA SALBIY
TASIR KO'RSATUVCHI ILLATLARNING OLDINI OLİSH FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI**

Sattorov Suxrob Sevdiyorevich

O`zbekiston Respublikasi IIV

Akademiyasi 317-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola mavzusining dolzarbliji shundaki, profilaktika inspektorining voyaga yetmaganlarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi illatlarning oldini olish faoliyatini takomillashtirish tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari hamda profilaktika inspektorlari ushbu faoliyatni takomillashtirish borasida soxaviy va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan amalga oshiradigan hamkorlik doirasi. Shuningdek, mazkur faoliyatni tartibga soluvchi normalar va ularni qo'llash amaliyoti tahlil qilinib, faoliyatni takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar yoritib berilgan.

Аннотация: Актуальностью темы данной научной статьи является концепция совершенствования профилактической деятельности инспекторов-профилактиков, оказывающих негативное воздействие на несовершеннолетних, ее особенности, а также рамки сотрудничества инспекторов-профилактиков с профессиональными и иными правоохранительными органами в совершенствовании этой деятельности. Деятельность. Также анализируются нормы, регулирующие данную деятельность и практика их применения, выделяются предложения и рекомендации по совершенствованию деятельности.

Ilmiy maqolaning dolzarbliji: Jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish, inson huquq va erkinliklariga so'zsiz rivoja etilishini ta'minlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlardan ko'zlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar xalqimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu o'zgarishlarning dastlabki natijalari aholimiz hayoti va kundalik turmushida o'zining yaqqol ifodasini topmoqda, el-yurtimizning ijtimoiy faolligi, ertangi kunga ishonchi o'sib bormoqda. Biz mamlakat hayotiga doir har bir qarorni xalqimiz bilan maslahatlashib, bevosita muloqot asosida qabul qilmoqdamiz. «Xalq davlat idoralariiga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan g'oya faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentyabrdagi «Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi Qonuni voyaga yetmaganlarning huquqbazarliklarini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunda voyaga yetmaganlarning huquqbazarliklarini oldini olish, shuningdek ushbu sohadagi tushunchalar berib o'tilgan. Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, hozirgi paytda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbazarliklar va huquqbazarliklarning oldini

Date: 17th November-2024



olish dolzarb muammolardan biridir. CHunki kelgusi ishlarning davomchilari aynan o'sib kelayotgan yosh avloddir, ular davlatning kelajagini hamda ertangi kuni va taqdirin belgilaydi. Voyaga yetmaganlar va yoshlar tomonidan sodir etlayotgan,sodir etilish mumukin bo'lgan huquqbazarliklarni oldini olish bugungi mamlaktimiz tarqqiyoti hamda tinchligi-osoishtaligi uchun qanchalar dolzarb muammo ekanligini va uni amalga oshirish qanchalik zarur va shart bo'layotganligini bugungi kunning statistikasi va tahlillarida ham ko'rishimiz mumkin.

Respublikamizda mustaqillik yillarida voyaga yetmaganlarning xuquq va qonuniy manfaatlari ximoyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Hozirgi kunda voyaga yetmaganlarni har tamonlama barkamol inson qilib tarbiyalash, ularning ijtimoiy muxofazasini ta'minlash,iqtidorli bolalarni rag'batlantirish borasidagi tadbirlar bilan bir qatorda jinoyat sodir yetgan voyaga yetmaganlarning axloqini tuzatish, ularni to'g'ri yo'lga tushib olishi borasida ham izchil ishlar olib borilmoqda.

Voyaga yetmaganlarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini har qanday ko'rinishdagi tahdid va tajovuzlardan himoya qilish, xususan ularni nazoratsiz va qarovsiz qolish holatlarining oldini olish borasida samarali profilaktik ishlarni amalga oshirishda ichki ishlar organlarining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. «O'tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ichki ishlar organlarining mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan quyi bo'g'inini rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha salmoqli ishlar qilindi».

Voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishslash tizimini Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga, o'sib kelayotgan yosh avlodni terrorizm, diniy ekstrayemizm, zo'ravonlik va shavkatsiz g'oyalardan himoyalashga yo'naltirilgan holda rivojlantirish zarur.

Yurtboshimiz bu masalaning dolzarbligini ta'kidlab, shunday degan edi:«Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro»-etibori, avvalambor, farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak».

Respublikamizda mustaqillik yillarida inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, turli tahdid va tajovuzlardan ishonchli himoya qilish, xususan, oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbazarliklar profilaktikasini samarali tashkil etishning ma'naviy, huquqiy va institutsional asoslari yaratildi. Mazkur qonun hujjatlari talablari asosida inson huquq va erkinliklarini, oila manfaatlarini ta'minlash, ularni qo'llab-quvvatlash, shuningdek ularni har qanday ko'rinishdagi tahdid va tajovuzlardan himoya qilish bo'yicha respublika «Oila» ilmiy amaliy markazi, Xotin-qizlar bilan ishslash va oilalarda ma'naviy axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha mutaxassis lavozimi, O'zbekiston «Yoshlar ittifoqi» kabi maxsus institutlar tashkil etilib, ularning faoliyati takomillashtirilmoqda.

Date: 17th November-2024

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi «Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6196son Farmoniga muvofiq, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'rnatilayotgan yangi mexanizmlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlashda ichki ishlar organlarining roli va mas'uliyatini yanada oshirish maqsadida 2021 yil 2 aprelda qabul qilingan "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ 5050-sonli Qarorni qabul qilishda profilaktika inspektorining fuqarolarning qonuniy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish hamda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklarni oldini olish faoliyatining samaradorligini oshirish nazarda tutilgan.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida «jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish» kabi vazifalar nazarda tutilgan. Jumladan, Harakatlar strategiyasida notinch oilalar farzandlari, uyushmagan yoshlar, ish bilan band bo'limgan, «ommaviy madaniyat» ta'siriga tushib qolgan yigit-qizlarning xattiharakatlarini nazoratga olishda ularning ota-onalarining mas'uliyatini oshirish, kashandalik, alkogolli ichimliklar iste'mol qilish va boshqa illatlar profilaktikasiga oid tadbirlar, seminarlar o'tkazish, buklet, plakat, ko'rgazmali qo'llanmalar chop etish, ko'rsatuva va eshittirishlar tashkil qilish kabi qator vazifalar belgilab berilgan.

Mazkur meyoriy-huquqiy hujjat talablari asosida huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirishning ta'sirchan tizimini yaratish, qonun buzilishlarining oldini olish va ularni bartaraf etishning zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish maqsadida 2017 yil 14 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

Voyaga yetmaganlarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi illatlarning oldini olishda:

1) Ichki ishlar organlari faoliyatini yuridik ta'minlash va ularning qonun ijodkorligi hamda huquqni qo'llash amaliyotida qonuniylikka riosa etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

2) qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotida huquqbazarliklarni sodir etish sabablari va shart-sharoitlari bo'lgan omillarni aniqlashni ta'minlash, shuningdek ularning tizimli tahlilini amalga oshirish;

3) qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish, huquqbazarliklarni sodir etish sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etishga doir takliflar ishlab chiqish hamda amalga oshirish, shuningdek ularni davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga belgilangan tartibda kiritish;

Date: 17th November-2024

4) ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish, ular zimmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;

5) normativ-huquqiy hujjatlarning tizimlashtirilgan hisobini yuritish.

Voyaga yetmaganlarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi illatlarning oldini olishda maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

a) voyaga yetmaganlarga salbiy tasir ko'rsatuvchi illatlarning asl sabab va sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etish bo'yicha markazlashgan elektron ma'lumotlar bazasi yuritishini yo'lga qo'yish;

b) voyaga yetmaganlarga salbiy tasir ko'rsatuvchi illatlarning asl sabab va sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etish ishlarining ahvolini har oyda bir marotaba xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari sessiyalarida tanqidiy muhokama qilish va aybdor shaxslarning javobgarligini qat'iy ko'rib borish tartibini joriy etish;

v) maishiy zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar, xususan uyushmagan yoshlar bilan profilaktik ishlar samaradorligini oshirish maqsadida «maishiy zo'ravonlikka moyil shaxslar»ni profilaktik hisobga olish yuritiladigan shaxslar doirasiga kiritish;

g) og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatning sodir etilishi sabablari hamda unga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha taqdimnomani bajarmaslik uchun jinoiy javobgarlik belgilash, xususan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksini quyidagi mazmundagi 2071modda (taqdimnomani bajarmaslik) bilan to'ldirish: «Vakolatli organ yoki mansabdor shaxs tomonidan davlat organi, jamoat yoki boshqa tashkilot rahbariga kiritilgan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatning sodir etilishi sabablari hamda unga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha taqdimnomani bajarmaslik – ».

Ma'lumki voyaga yetmaganlar va yoshlar urtasida huquqbazarliklar oldini olish ularni huquqiy jixatdan to'g'ri takomillashtirish yuzasidan qabul qilingan qounulardan eng muhimi bu - voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklар profilaktikasi to'g'risidagi qonuni bo'lib ushbu qonunning maqsadi voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat hisoblanadi, aynan ushbu qonun asosida Ichki ishlar oraganlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbazarliklar profilaktikasi inspektorlari ota-onalarda yoki ota-onalarda o'rnini bosuvchi shaxslar bilan doimiy aloqada va hamkorlik asosida bolalarini ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha majburiyatlarini bajara borib, ularning xavfsizligini, hayoti va sog'lig'i muhofaza qilinishini, nazoratsizligi va huquqbazarliklarning profilaktikasini ta'minlash maqsadida ular tahsil olayotgan ta'lim muassasalarida o'qiyotgan voyaga yetmaganlarning o'qish vaqtida restoranlar, kafelar, barlar, klublar, diskotekalar, kinoteatrlar, komp'yuter zallari, internet tarmog'idan foydalanish xizmatlarini ko'rsatish uchun jihozlangan xonalarda yoxud boshqa ko'ngilochar (dam olish) joylarda bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, bundan mazkur muassasalarda ta'lim faoliyati yoki ta'lim muassasasi tomonidan o'tkaziladigan tadbir doirasida bo'lishi mustasno, voyaga yetmaganlarning spirtli ichimliklar, giyohvandlik

Date: 17th November-2024



vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishiga, chekishiga yo'l qo'ymaslik, voyaga yetmaganlarning huquqbazarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti harakatlar sodir etishiga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ko'radi.

Qolaversa, ota-onalarda yoki ota-onalarda o'rnini bosuvchi shaxslar va inspektorlar bilan birgalikda voyaga yetmaganlarning restoranlar, kafelar, barlar, klublar, diskotekalar, kinoteatrlar, komp'yuter zallari, Internet tarmog'idan foydalanish xizmatlarini ko'rsatish uchun jihozlangan xonalarda yoxud boshqa ko'ngilochar (dam olish) joylarda tungi vaqtida ulardan birining kuzatuvisiz bo'lishiga yo'l qo'ymaslik choratadbirlarini ko'radir.

Profilaktika inspektorlari voyaga yetmaganlarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi illatlarning oldini olishda bir qator organ hamda muassasalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishlari orqali ushbu faoliyatni takomillashtirishga erishadilar. Ushbu organlar hamda muassasalar tizimiga quyidagilar kiradi:

- voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar;
- ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalar;
- vasiylik va homiylik organlari;
- sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalar;
- mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari;
- huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi boshqa organ va muassasalar.

Ilmiy o'rganishimiz natijasida bugungi kunda voyaga yetmaganlarning ma'naviy saviyasini yuksaltirishda zamонавиy imkoniyatlardan unumli foydalanish masalasiga jiddiy e'tibor berilmoqda. Jumladan, komissiya sa'y-harakatlari bilan o'quv muassasalarida axloqiy mavzudagi telefilmlar namoyishi yo'lga qo'yildi. SHuningdek, voyaga yetmaganlar huquqbazarligi va jinoyatchiligining oldini olishga qaratilgan hujjatli filmlar yaratilib, o'quv muassasalariga tarqatilmoqda. Voyaga yetmagan shaxslarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlarga rioya etilishini ta'minlash yuzasidan hududiy komissiyalar bilan yaqin hamkorlikda onalik va bolalikni muhofaza etish, ota-onalarda qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirish, jismoniy imkoniyati cheklangan va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj guruhlarga kiradigan bolalarni aniqlab, ularning tarbiyasi bilan band bo'lishga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada o'tkazilgan tadbirlar natijasida o'tgan yili voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik va o'z joniga qasd qilish kabi holatlarda sezilarli pasayish yuz berdi. YOshlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida jinoyat va ma'muriy javobgarlik to'g'risida qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi.

Voyaga yetmaganlarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi illatlarning oldini olish faoliyatini samarali tashkil qilish maqsadida quyidagi muammo va takliflarni ko'rsataman:

Muammo: xozirgi kunda nazoratsiz qarovsiz voyaga yetmaganlarning shaxsini aniqlash, ma'lumotini to'plash borasidagi qiyinchiliklar mavjud, ya'ni nazoratsiz qarovsiz voyaga yetmaganlarni haqida FXDYO ma'lumotlariga to'sqiniksiz kirish imkoniyatini

Date: 17th November-2024

profilaktika inspektorlariga berilmaganligi sababli tegishli tartibda chora ko'rlishidagi ortiqcha vaqt sarflanishiga olib kelinayotganligi aniqlangan.

Taklif: Ushbu holatda voyaga yetmaganlarga berilgan tug'ilganlik haqidagi ma'lumotlar huddi fuqarolik pasporti umumiy bazasi kabi yig'iladigan "Respublika tug'ilganlik haqidagi guvohnoma bazasi" sifatida jamlanib yuritiladigan yagona tizim joriy qilish, natijada qarovsiz va nazoratsiz voyaga yetmaganlarni aniqlagan IIO xodimlari qisqa muddatda ular haqida ma'lumot to'plab tegishli tartibda chora ko'rishda samaradorlikka erishishi mumkin.

Muammo: Ma'lumki 2010 yil 29 sentyabr'dagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunning 6-moddasidagi Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasiga doir faoliyatni axborot bilan ta'minlashdagi IIOning boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organ va davlat muassasalari o'rtasidagi hamkorlik amalda samarali tashkil etilmagan va o'z tasdig'ini topmagan.

Taklif: IIO va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organ hamda davlat muassasalari orasida Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasiga doir axborot bilan ta'minlash tizimi samaradorligini yanada oshirish maqsadida qo'shimcha tashkiliy va xuquqiy normativ xujjatlarni yaratish hamda amaliyotga to'liq joriy qilish.